

Surxon tongi

2026-yil
21-mart
(shanba)
11-son
(17 995)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan



surxontongi.uz



t.me/surxontongi

QADIMIY BAYRAMDA QADRIYAT SEROB...



O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning dilbar satrlari bilan so'zimizni boshlaganimiz bejiz emas. Zotan, shoirning tavalludi aynan bahoriy tengkunlikda ekanidir. — Yillar davomida Navro'z bayrami nishonlanmay kelganiga guvohimiz, mustaqillik arafasida ko'klam bayrami sifatida nishonlash borasida bahslar ketganini eslayman, — deydi Chori Musurmonqulov. — Navro'z ayyomini nega yangilanish bayrami deyishganini bilasizmi?! U shunchaki bahorning darakchisi, uyg'onish mavsumining ibtidosi emas, u mustaqilligimiz boshlanishidir. Mana, bugun men ushbu bayram sayillarida ishtirok etar ekanman, o'sha kunlar unutilib, tinchlik zamonida zavqli bayramni erkin nishonlash baxtiga musharraf ekanimizdan shukrona keltiraman.

O'zbekiston yurtidoshlaridan avvalroq qarshi oladigan surxonliklar bu yil Navro'zni viloyat hokimining tashabbusi bilan Termiz tumanidagi Yangi O'zbekiston massivida bayramona o'nkunlik sifatida nishonlashdi. — Bayramlarimiz bugun tabdan o'zgaragan. Ayniqsa, asosiy bayram tadbirlari o'tkaziladigan maydonning har bir qarichi rejalashtirilgan, — deydi termizlik Bahrom Qurbonov. — Sayil desa tuproq oralab o'tovma-o'tov gavjum yo'lkalarda tomosha qilish uchun minglab odamlarning u yoqdan bu yoqqa yurgan davri hali uzoq o'tmish emas.

Mana oyoq qo'ysang, gard yuqmaydigan, tomosha qilay desang, o'n kunlab imkonning bo'ladigan. Tunlarni madaniy hordiq chiqarishni istagan yurtdoshlari uchun xavfsiz va qulay, yoritgichlari nurafshon, el sevgan san'atkorlar ishtirokidagi konsert dasturlari deysizmi — mana buni bayram tuhfasida desa bo'ladi. Avvallari bayramni faqat televizorda ko'rardik, xolos. Hozir esa har kuni bayram dasturi. Deyarli har kuni konsertlarga kelib, bolalarim bilan bayram shukuhini his etyapmiz.

Muhtasham bog' hududi o'zgacha bugun. Milliylik va zamonaviylik qorishib, Surxongagina xos tarovat baxsh etib turibdi. Yo'lak bo'yab tandirining ifori ishtahangiz qitiqlaydi. Bezak desa bir viloyatning har burchiga xos namoyish ko'zingiz qamashtradi. Tog'lariday purviqor Boysunning hunarmandlari, anoriday lazzatbaxsh Sherobodning folklori, baliqlari bilan mehmonnavozlikni o'rnatayotgan Qumqo'rg'on vakillari bayramning fayzini butkul his ettiradi-yey. Bay-bay taomlarning xushxo'rliqi, mehmondo'st elning taomlaridan-da shirinsuxanligi.

— Navro'z "qozonto'ldi" deb atalgan davrlardan buyon ilikuzildi vaqtning eng maqbuli deb qaraladi, — deydi tarixchi Abdulhay Amonov. — Bu yilgi bayramning ayni qutlug' Ramazon oyi bilan yanada latif o'tishi ham mo'jiza. Navro'zni diniy yuzaki tahlil qiladigan kishilar qoralashlarini ko'p bora eshitganman. Ammo hijriy-shamsiy taqvim bo'yicha Quyoshning birinchi burjga va oyning o'n ikki burjdan biri — hamalga kirishi bilan Navro'z boshlanadi. Xo'p, besh ming yillik tarixga ega bu bayram inson va tabiat

"Yana ko'ngillardan rutubat ketdi, Yana shu'lalardan qamashmoqda ko'z". Sharqona yangi yilning nafosati bor. Uning betakror jozibasi bois rangorang olam zumrad faslning bezagi yanglig' tasavvur uyg'otaveradi. Rutubati unut, umidlari bisyor elga esa shukuh ulashajak ayyomning fayz-u tarovati xush kayfiyatga munosib.



uyg'unligi ramzi sifatida qadrlanadi. Shamsiy yilning boshlanishi, ya'ni Navro'zi olamni nishonlashga qaratilgan hech qanday qarshi ko'rsatmalar mavjud emas. Aksincha, Qur'oni karimning "Isro" surasida bunday zikr qiladi: "Kunduz alomatini esa Rabbingizdan fazl (rizq) istashlaringiz uchun hamda yillar sanog'ini va hisobini bilishingiz uchun yorug'lik qilib qo'ydik. Barcha narsani batafsil bayon qilib qo'yganmiz". Mufasssirlar mazkur oyatning "yillar sanog'ini" qismini qamariy (Oy) taqvim bilan ish yuritish (binobarin, diniy yumushlarda), yillar "hisobini" qismini esa shamsiy (Quyosh) taqvim bilan ish yuritish (ayniqsa, dehqonchilikda) mazmunida tafsir qilishgan.

Navro'zi olam faqatgina o'yin-kulgi emas, balki mehr-oqibat bayrami hamdir. Shu kunlari keksalar ziyorat qilinadi, ehtiyojmand oilalarga yordam ko'rsatiladi va mahallalarda ommaviy hasharlar tashkil etiladi. Shu bois ham bu yilgi bayram tadbirlari respublika misyosida "Navro'zni ulug'lash" shiori ostida o'tkazilayotir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2026-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarorida ta'kidlanganidek, "Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamiy islohotlar tufayli inson qadri, uning huquq va manfaatlarini ta'minlash, xalqimiz farovonligini oshirish, jamiyatda tinchlik, do'stlik va hamjihatlik muhitini, ijtimoiy adolat tamoyillarini mustah-



kamlash yo'lida ulkan qadamlar tashlan-

Ulug'bek Qosimovga ham tashakkur!

Bayram tantanalari tashkil etiladigan manzil gavjum. Dorbozlarning mahorati mahobatli maydonga bezak bo'layotir. Milliy o'yinlar bilan mashg'ul yigit-qizlarning epchilligi tahsinga sazovor. Sport bahslari ham salomatlik elchisi yanglig' ko'klam ayyomiga xos. Bog'ni kezgan borki, ko'ngli ko'kka yetganday xursand. Shodlik, shodonlik hissi ufuq turgan manzilda bolajonlarning sho'x qiyqirig'i varraklarga qanot bo'layotir, havo sharlarining parvozi esa osuda osmonning teran ramzidir. Quv nay desang sabab ko'p!

— Ochiq osmon ostidagi kengliklar ko'ngil kengliklariga ulashib ketganday, qo'lni qo'lga berganlarning hamjihatligi havas qilarli, — deydi Uljamol Batirova. — Turkman elining-da suyuqli bayramida qardosh xalqlar hamohang ekan, bu elning kelajagi porloq. Bugun bayram tantanalari uchun qo'shni Tojikiston Respublikasidan delegatsiya tashrif buyurgan ekan, ularning ham tili turfa, maslaji bir qardoshiga tilagani ezgulik ekanligi sezilib turibdi. Surxondaryo bugun xalqaro maydon — unda turfa millat vakillari bahamjihat, vatan istiqbol uchun kamarbasta.

Bayramona bezatilgan maydonning besarhad zavqi bolajonlar kulgisida aks etadi, ular shodlanayotgan maydonchalar yanada fayzli. Zotan, ota-bobolari qadrlagan qadriyatlarini e'zozlagan avlodning kelajagi barqaror, porloq. Shuning bilan viloyat Navro'z sayillarining afzali — asosiy bayram

SHUKUH



tadbiri viloyat hokimining tabrigi bilan boshlandi. Yangilanish ayyomi doimgidek yangi istiqbolli rejalaridan boxabar etdi: — Viloyatimiz anchagina o'zgarishlarga yuz tutgan yil davomida 67 ming nafar aholi doimiy ish bilan ta'minlanadi, 58 ming nafar yosh til va kasbga o'rgatiladi, — dedi viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov bayram tabrigidan yo'ng vohada erishilgan yutuqlar haqida so'zlar. — Shuningdek, dunyoning mashhur shaharlariga muntazam aviaqatnovlar amalga oshiriladi, o'nlab tuman markazlari bilan bog'lovchi zamonaviy avtobuslarga ega qatnovlar yo'lga qo'yiladi, transport tizimi tubdan isloh qilinadi. Qator tumanlar markazlari yagona oqava tizimiga ulanadi va hududlar infratuzilmasi yanada yaxshilanadi.

Bu kabi yangiliklar voha iqtisodiyotining rivoji hamda aholi farovonligini oshirishni mo'ljal qilgan holda olib borilayotgan izchil islohotlar samarasi sifatida namoyon bo'ladi. Nafaqat iqtisodiyot taraqqiy etadi, balki hududda ma'naviy-ma'rifiy soha ham rivoj topajak.

— Oilaviy kitobxonlikni ma'qul ko'ramiz, kundalik hayotimizning asosiy qismi ham kitoblarga oshnoqlik, — deydi Ra'no Oqboeva. — "Yosh kitobxon oila" singari tanlovlarda ishtirokimizni turmush o'rtog'im hamisha qo'llab-quvvatlaydi. Joriy yil ilk marotaba "Viloyat hokimi kubogi" uchun tashkil etilgan "Kitobxon davlat xizmatchisi" ko'rik-tanlovida ishtirok etdim. Tanlovning uch bosqichida ham muvaffaqiyatli ishtirok etib, viloyat hokimi tomonidan aynan Navro'z ayyomining

asosiy bayram tadbirlarida bosh mukofot — "Damas" avtomobili bilan taqdirladim. Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxiotosh tumanidan tashrif buyurgan yoshlarning viloyat bayram tadbirlarida ishtiroki ham, ular uchun tashkil etilgan uchrashuvlar, sharoit va imkoniyatlar bayram bahonasida esda qolarli sharqona yil avvali bo'layotir. O'z uydan uzoqda, biroq qalban tutash manzilda kechayotgan bayram hissini ta'rifiyatgan yoshlarning ko'zlarida hayajonni kuzatish mumkin. Taxiotoshlik yoshlarning bildirgan tashakkurlari esa bag'rikeng elning minglab chaqirim o'ldidagi jondoshlari uchun qilgan beminnat xizmatlari uchun surxonliklarga aylilgan yuksak e'tirof namunasidir.

Hazrat Navoiyning: "Har turing qadr bo'libon, har kuning bo'lsin Navro'z", deganlari shu dorilomon kunlarning nashidasini ifoda eta oladi. Yuzda aks etgan tabassum, qalbdan jo'shgan iftixonning boisi — Vatan, Navro'zini ulug'lash asnosida insonning e'zozini unutmaydigan el yana qayda bor? Surxonga yarashgan bayramona kayfiyat har soniyasi jadal taraqqiyot bilan band voha uchun zarurat — rivojlanish turtkisidir.

Xurshid
KARSHIYEV

JONLI TARIX NAMOYON —

MINGYILLIK SIRLAR AYON

Bugun yurtimizda milliy merosni asrab-avaylash, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy va ma'naviy boyliklarni chuqur o'rganish hamda uni kelajak avlodga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ana shunday ulug' maqsadlar yo'lida barpo etilgan muhim ma'rifiy maskanlardan biri — O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi hisoblanadi.



IFTIXOR

Ushbu markaz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barpo etilgan bo'lib, u xalqimiz tarixi, madaniyati va islom sivilizatsiyasining boy merosini namoyon etuvchi noyob ilmiy-ma'rifiy majmua sifatida e'tirof etilmoqda.

Yaqinda Surxondaryo viloyatidan bir guruh nuroniyalar, faollar va ziyolilar uchun ushbu markazga ma'rifiy sayohat tashkil etildi. Mazkur tashabbus doirasida "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati tomonidan barcha sharoitlar yaratilib, qariyb 300 nafar surxondaryolik nuroniy, faollar va ziyolilar ushbu markazning ilmiy-ma'rifiy merosidan bahramand bo'lishdi.

Markaz hududini aylanar ekanman, go'yo insoniyat tarixining turli davrlari ko'z oldimda jonlangandek bo'ldi. Ekspozitsiyalarda dunyo qarashlaridan tortib, islom sivilizatsiyasining shakllanishi va yuksalishigacha bo'lgan tarixiy jarayonlar juda ta'sirli tarzda namoyon etilgan.

Bu yerga kirgan inson go'yo mingyillik tarix bilan yuzma-yuz keladi. Ayniqsa, islom dunyosidagi Birinchi Renessans davrida Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan buyuk allomalar — Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlarning ilmiy merosi haqidagi ma'lumotlar juda katta taassurot qoldirdi. Bu ekspozitsiyalar orqali

islom sivilizatsiyasining ilm-fan, tibbiyot, falsafa va madaniyat rivojiga qo'shgan beqiyos hisssasi yaqqol namoyon bo'ladi.

Markazda Ikkinchi Renessans — Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivoji ham alohida ekspozitsiyalar orqali ko'rsatilgan. Shu bilan birga, zamonaviy O'zbekiston taraqqiyoti ham zamonaviy texnologiyalar orqali namoyon qilingan. Ekskursiya davomida meni eng hayratga solgan jihatlardan biri — Ka'ba po'shtini ko'rish bo'ldi.

Markaz ekspozitsiyalarida yurtimizning barcha viloyatlar tarixi, madaniyati va ma'naviy hayoti qamrab olingani, uning mazmunan keng qamrovli ekanini ko'rsatadi. Bir kunlik sayohatda go'yo bir necha asrlik tarixni ko'z

oldimdan o'tkazgandek bo'ldim.


Markazning arxitekturasini ham alohida e'tiborga loyiq. Milliy me'morchilik an'analari bilan uyg'unlashgan zamonaviy uslubda qurilgan bu majmua nafaqat ilmiy-ma'rifiy, balki madaniy va ma'naviy ahamiyati bilan ham yurtimizning eng go'zal maskanlaridan biriga aylangan.

Muzeyning "Yangi O'zbekiston — Uchinchi Renessans poydevori" deb nomlangan zali mamlakatning hozirgi taraqqiyot bosqichiga bag'ishlangan bo'lib, madaniy va ilmiy an'analarning qayta tiklanishini ko'rsatib beradi. Ekspozitsiya markazida O'zbekiston bayrog'ining ulkan

projeksiyasi joylashgan bo'lib, u ma'lum bir burchak ostida daraxtga aylanadi va xalqning tabiatga bo'lgan muhabbatini ramziy ifodalaydi. Bu yerda zamonaviy kandakorlik, gilamdo'zlik, yog'och o'yimkorligi, kulolchilik, zargarlik, naqqoshlik va boshqa sohalaridagi ustalar tomonidan yaratilgan amaliy bezak san'ati namunalari ham ko'rish mumkin. Men bu muzeyni dunyoning sakkizinchi mo'jizasiga qiyosladim. Majmuaning ikkinchi qavatini keng kutubxona va arxiv fondi egallagan. Uning to'plamida yuz mingdan ortiq qo'lyozma va toshbosma, 200 mingga yaqin bosma nashr hamda milliondan ziyod elektron formatdagi materiallar mavjud. Fondning asosini

Qur'on va hadislarga oid asarlar, ilohiyot va falsafiy tadqiqotlar, Birinchi va Ikkinchi Renessans, Islom sivilizatsiyasi tarixi bo'yicha ilmiy ishlar, shuningdek, she'riyat va gumanitar fanlar sohasidagi tadqiqotlar tashkil etadi. Yurtimizda bunday ma'rifiy majmualar barpo etilayotgani, xalqimiz tarixi va madaniyatiga yuksak e'tibor qaratilayotgani har bir yurtdoshimiz qalbida iftixor tuyg'usini uyg'otadi.

Ra'no SALOMOVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti dekani, Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati



FAOLIYAT FAOLLIK DAN IBORAT

DOLZARB MA'VZU

Surxondaryo viloyati prokuraturasi organlari tomonidan mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2025-yil davomida "qizil" toifadagi mahallalarda istiqomat qiluvchi 5 205 nafar shaxsning bandligi ta'minlandi.

Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish borasida jami 21 054 marotaba vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish bo'yicha tadbirlar tashkil etildi hamda 7 786 nafar og'ir toifadagi yoshlarning kasb-hunar, chet tillari, bandligi, tibbiy va boshqa yordamlar bilan bog'liq ijtimoiy-maishiy muammolari hal etildi.

Yoshlar bilan 8 244 marotaba vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish bo'yicha tadbirlar tashkil etildi hamda 7 786 nafar og'ir toifadagi yoshlarning kasb-hunar, chet tillari, bandligi, tibbiy va boshqa yordamlar bilan bog'liq ijtimoiy-maishiy muammolari hal etildi.

O'tgan yil davomida jami 10 934 ta kameralar va 240 ta "tashvish tugmalari" o'rnatilib, 16 000 ta obyektlar texnik qo'riqlovga olindi. Xususan, ko'p qavatli uylarning hovlilariga 95 ta hamda ta'lim muassasalarining kirish-chiqish joyi va ochiq sport maydonlariga 1 903 ta "RTZ kameralari", mahallalarning asosiy kirish-chiqish joylariga 2 250 ta, savdo markazlari va bozorlarga 300 ta yuzni va avtoraqamlarni tanib oluvchi maxsus kameralar o'rnatildi.

O'rnatilgan kameralarning 3 253 tasi viloyat IIBning tezkor boshqaruv markaziga integratsiya qilingan bo'lsa, qo'shimcha qizil toifadagi mahallalarda 1 339 ta kameralar "Xavfsiz shahar" markazining "Qalqon" platformasiga integratsiya qilindi. Shuningdek, shahar-tumanlardagi kriminogen vaziyati og'ir bo'lgan "qizil" toifadagi mahallalarning 1 440 ta ko'chasida "namunaviy xavfsiz ko'cha" va 2 578 ta "namunaviy xavfsiz yo'lak"lar tashkil etildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida o'tgan yil bo'yicha viloyatdagi mahallalarning 63,5 foizida (459 ta) jinoyat qayd etilmaganligi, 31 foizida (224) jinoyatchilik barqaror saqlanib qolishiga erishildi. Shuningdek, o'tgan yilda 415 902 ta xonadonda xatlov o'tkazilib, 99 507 nafar shaxssa ijtimoiy profilaktika tartibida xulosalar berilib, ularning 75 670 tasi hal etildi.

Joriy yilda ham viloyatda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida tizimli ishlar tashkil etilmoqda.

Alisher BOBOMURODOV,
Surxondaryo viloyati prokurorining Jamoatchilik bilan aloqalar va huquqiy axborot bo'yicha katta yordamchisi

"YUKSALISH" IJRONI KUZATADI



Ma'lumki, Prezidentimizning 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonning ijrosini muntazam ravishda jamoatchilik nazorati asosida o'rganib

borish, shu bilan birga reja asosida har chorak yakunlari bo'yicha umumlashgan, aniq ko'rsatkichlar hamda kamchiliklarni aks ettirgan holda xalq deputatlari Surxondaryo



viloyat Kengashining navbatdagi sessiyalarida yozma hisobotlar tayyorlash vazifasi yuklatilgan. "O'zbekiston — 2030" strategiyasini Surxondaryo viloyatida qo'llab-quvvatlovchi

Jamoatchilik guruhi a'zolari tomonidan 2025-yil — "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da "Yashil turizm" infratuzilmasi loyihalarini amalga oshirish hamda 2026-yilning yanvar, fevral oylarida Termiz shahrida va davlat dasturining 60-maqsadi doirasida ko'p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini rivojlantirish borasida belgilangan vazifalar ijrosi

Kuni kecha viloyat "Matbuot uyi" da "Yuksalish" harakati viloyat hududiy bo'linmasi tomonidan "O'zbekiston — 2030" strategiyasini qo'llab-quvvatlovchi Jamoatchilik guruhining jamoatchilik eshituvi bo'yicha yig'ilishi bo'lib o'tdi.

yuzasidan Termiz shahri, Denov, Boysun, Jarqo'rg'on va Oltinsoy tumanlari bo'yicha samarali jamoatchilik monitoring tadbirlari o'tkazilgan.

Kun tartibidagi birinchi eshituv: "O'zbekiston — 2030" strategiyasini 2025-yil — "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da "Yashil turizm" infratuzilmasi loyihalarini amalga oshirish bo'yicha viloyat Turizm boshqarmasi sho'ba boshlig'i X.Xolnizozov hamda kun tartibidagi ikkinchi eshituvda ko'p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini rivojlantirish bo'yicha bajarilgan ishlar yuzasidan viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi sho'ba boshlig'i A.Xudoyberdiyevning hisoboti tinglandi.

Tadbirda jamoatchilik guruhi a'zolari, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi. Tadbir so'ngida Jamoatchilik guruhi a'zolari tomonidan belgilangan topshiriqlar ijrosi bo'yicha aniqlangan muammolar yuzasidan zarur taklif va tavsiyalar berildi.

X. TOG'AYMURODOV

MUVOZANAT MUHIM!



Har yili 22-mart — Butunjahon suv resurslari kuni sifatida keng nishonlanadi.

Bu sana insoniyat hayotida suvning beqiyos ahamiyatini yana bir bor eslatish, suv resurslarini asrash va ulardan oqilona foydalanish zarurligini targ'ib etadi.

Suv — bu hayot manbai. Yer yuzidagi barcha tirik mavjudotlarning yashashi suv bilan bevosita bog'liq. Inson hayoti, qishloq xo'jaligi, sanoat va ekologik muvozanat suv resurslariga tayanadi. Shunga qaramay, bugungi kunda dunyoning ko'plab hududlarida suv tanqisligi muammosi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Aholi sonining oshishi,

sanoat va qishloq xo'jaligining kengayishi suvga bo'lgan talabni keskin oshirmoqda. Biroq sayyoramizdagi chuchuk suv zaxiralari cheklangan. Mamlakatimizda ham suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qishloq xo'jaligida suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish, sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish, tomchilatib sug'orish usullarini

keng qo'llash orqali suvdan samarali foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Bu esa nafaqat suv resurslarini tejash, balki ekologik muvozanatni saqlashga ham xizmat qilmoqda.

Ekologik muammolarni hal etishda jamoatchilikning faolligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtaiy nazardan, O'zbekiston Ekologik partiyasi tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik madaniyatni oshirishga qaratilgan qator tashabbuslar ilgari surilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Ekologik partiyasi Surxondaryo viloyat partiya tashkiloti tomonidan Butunjahon suv resurslari kuni munosabati bilan turli targ'ibot tadbirlari, davra suhbatlari va ekologik aksiyalar tashkil etilmoqda.

Ushbu tadbirlar orqali aholiga suv resurslarini asrash, suvdan tejamkorlik bilan foydalanish hamda tabiatni muhofaza qilishning ahamiyati haqida tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, suvni asrash faqat davlat yoki tashkilotlarning vazifasi emas. Har bir fuqaro kundalik hayotida suvdan oqilona foydalanishi, uni behuda sarflamasligi, suv manbalarini ifloslantirmasligi lozim. Chunki suv — tabiatning bebaho ne'mati, uni asrab-avaylash kelajak avlodlar oldidagi muhim mas'uliyatimizdir. Zero, suvni asrash — bu hayotni, kelajakni va tabiatni asrash demakdir.

S. JUMAYEVA,
O'zbekiston Ekologik partiyasi Termiz shahar partiya tashkiloti raisi

Viloyatimiz markazi sifatida Termiz shahri nafaqat hudud, balki butun mamlakat uchun muhim strategik ahamiyatga ega. So'nggi yillarda Termiz shahrida qurilayotgan ko'p qavatli uy-joylar ommaning diqqat markazida. Bir paytlar "qumloq joy" yoki "yopiq shahar" deya tan olingan Termiz qiyofasi bugun tamoman o'zgacha. Chunki shahardagi pastqam 2 yoki 3 qavatli uylar o'rnini 7, 9, hatto 14 (kelgusida 35 qavatli uylar ham rejalashtirilgan) qavatli uy-joylar qurilib, shahar osmon bilan bo'ylashmoqda.

Bugungi kunda Termiz shahrida 59 ta 3 275 xonadonli ko'p qavatli uy-joylar qurib bitkazilgan. Birgina "Bog'ishamol" MFY hududidagi "Farovon" va "Movaro" massivlaridagi 60 ga yaqin ko'p qavatli uylarda 24 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Aholi soni ortishi, albatta, shaharning iqtisodiy rivojlanishi uchun ham asos bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yangi turarjoy massivlari, keng va zamonaviy yo'llar, savdo va xizmat ko'rsatish markazlari barpo etilishida asqatuvchi jihattir. Shaharning bir mavsumdayoq 20 kilometr dan ortiq ichki yo'llarida asfalt qoplamalari yotqizilishi ham, bir emas 2 ta 24/7 saylgohlarining ishga tushirilishi ham aholi uchun qulay shart-sharoitlarning yaratilganidan dalolat. Hozir shaharda 35 ta zamonaviy, barcha qulayliklarga ega avtobuslar qatnovi yo'lga qo'yilgan, bu qatnovlar ishga tushunguna qadar shaharda "Aqli bekat"lar zamon bilan hamnafas tarzda bunyod etilgan edi. Shuningdek, har bir mahallada bolalar bog'chalari, maktablar, tibbiyot muassasalari va sport inshootlari qurilishi aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Ayni

damda shaharda 7 ta oilaviy poliklinika faoliyati ham sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish uchun doimiy harakatda. Bu yerda zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalari, so'nggi rusumdagi tibbiyot jihozlari aholi salomatligini saqlash borasida beminnat

deyarli butun shaharni toza ichimlik suvi bilan ta'minlayapti. Toza va sifatli suv iste'molidan fuqarolar mamnun. Buyuk mutafakkir olim Abu Rayhon Beruniy azim shahar haqida shunday yozgan edi: "Surxon zamini, ayniqsa,

Mana shu kabi keng qamrovli islohotlar bois bugun biz Amir Temur ordenli shahrimiz kelgusida yana ham rivoj topishi uchun istiqbolli rejalar belgilanib olingan. Bular shundayin yangiliklarki, ularning



JANUBDA TARAQQIYOT JADAL KECHADI

OBOD MANZILLAR

O'zbekistonning janubiy darvozasi hisoblangan Termiz shahri so'nggi yillarda jadal rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda. Ayniqsa, bu yerda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi infratuzilma loyihalari va investitsiya dasturlari shaharning iqtisodiy va ijtimoiy qiyofasini tubdan o'zgartirmoqda.

xizmatda. Endi sog'likni tiklash uchun poytaxtga emas, markazga borishadi. Bu yerda malakali mutaxassislar malham bo'lishadi.

Yana bir muhim jihat bu, albatta, ta'limga e'tibordir. Ta'lim — insonning bilim va tafakkurini boyitadigan, jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydigan eng muhim omildir. Ta'lim orqali inson nafaqat bilim oladi, balki hayotda to'g'ri yo'l tanlash, fikrlash va jamiyatga foyda keltirishni ham o'rganadi. Shuning uchun ham har bir davlatning kelajagi, avvalo, sifatli ta'limga bog'liqligi ta'kidlanadi. Shaharda o'tgan o'quv yilida 3 116 nafar bitiruvchi umumiy o'rta ta'lim, ixtisoslashtirilgan va Prezident maktablarini tamomlagan bo'lsa, shulardan 13 nafari doimiy ish o'rniga ega yosh sifatida, 1 244 nafari esa oliy ta'lim muassasalari talabasi sifatida ko'rsatilgan. Demakki, shahardagi maktablarda ta'lim sifati barqaror.

Shu bilan birga, bugun shaharda kommunal infratuzilmani yangilash, ichimlik suvi va elektr ta'minotini yaxshilash bo'yicha keng ko'lami ishlar olib borilmoqda. Birgina misol, To'palang suv omboridan tortilgan suv

Termiz qadimdan ilm-fan va madaniyat beshiklaridan biri bo'lib kelgan". Darhaqiqat, bugun yana bir muhim jihat, ya'ni turizm va madaniy meros rivoji barqaror o'sishda. Termiz qadimiy va boy madaniy merosga ega shahar hisoblanadi. Bu yerda joylashgan Fayoztepa, Qoratepa va Sulton Saodat majmuasi kabi tarixiy yodgorliklar sayyohlarni o'ziga jalb etadi. O'zbekiston xalq qahramoni Abdulla Oripov: "Surxon diyorining yuragi bo'lgan Termiz mehmondo'stligi va boy tarixi bilan ajralib turadi", deya haq gapni aytgan. Shu bois turizm infratuzilmasini rivojlantirish, mehmonxonalar va madaniy markazlar qurishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hammamizga ma'lumki, qayerda turizm rivojlansa, o'sha joyda rivojlanish bo'ladi. Prezidentimizning viloyatga tashriflari davomida shaharning qoq markazida barpo etilgan Etnoshaharchada ham bo'lib, bu joy haqida bildirgan iliq fikrlari hamda shu kabi ma'naviyat va tarix o'chog'ini tashkil etish haqidagi takliflari bejiz emas. Sababi, tarix — haqiqat jarchisi, ma'naviyat, yuksalish yuragidir.

har biri muhim ahamiyatga ega. Ular orasida zamonaviy turarjoy majmualarini yanada rivojlantirish, sanoat zonalarini kengaytirish, transport va logistika tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ta'lim va tibbiyot muassasalarini ko'paytirish hamda turizm salohiyatini oshirish kabi vazifalar belgilanayotir. Bu loyihalarning amalga oshirilishi natijasida qadim va navqiron shahar — Termiz nafaqat janubiy hududning markazi, balki mintaqadagi yirik iqtisodiy va madaniy shaharlardan biriga aylanishi aniq.

Amalga oshirilayotgan kompleks rivojlanish dasturlari aholi farovonligini oshirish, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va shaharning zamonaviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu islohotlar tufayli Termiz kelajakda yanada obod, qulay va rivojlangan shaharga aylanishi shubhasiz.

Dilbar NORMURODOVA,
Xalq deputatlari
Termiz shahar kengashi
raisi

HUQUQ VA
JAMIYAT

MASOFADAN O'TKAZILADI

Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotini modernizatsiya qilish bilan bir qatorda, sud-huquq tizimini ham tubdan takomillashtirishga qaratilgan.

Chunki huquqiy davlatni barpo etish jarayonida qonun ustuvorligini ta'minlash va adolatli sudlovni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi PF-22-son Farmoni ham mamlakatda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan muhim huquqiy asoslardan biri hisoblanadi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, sudlar faoliyatining ochiqligini kuchaytirish

va fuqarolarning adolatli sudlovga bo'lgan huquqlarini kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sud hokimiyati esa qonun ustuvorligini ta'minlashda asosiy institutlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Sudlar fuqarolar va davlat o'rtasidagi munosabatlarda adolat mezonlarini ta'minlaydi, huquqiy nizolarni hal qiladi hamda inson huquq va erkinliklarini himoya qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda sud tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda sudlarning institutsional mustaqilligini ta'minlash, sudyalarning professional malakasini oshirish hamda sud jarayonlarining ochiqligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha

islohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni doirasida sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, sudlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, sud jarayonlarida elektron sud tizimi, audio va video yozuvlar, onlayn sud majlislari kabi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish sud faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu esa fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Sud tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Elektron sud tizimi sud ishlarini yuritishda tezkorlik, shaffoflik va samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Masalan, sud hujjatlarini elektron shaklda yuborish, sud majlislarini masofadan turib

o'tkazish hamda sud qarorlarini ochiq e'lon qilish sud tizimining zamonaviy rivojlanish bosqichini ifodalaydi.

Bunday yondashuv fuqarolarning sudga murojaat qilish jarayonini soddalashtiradi hamda sud jarayonlarida byurokratik to'siqlarni kamaytiradi.

Sohaga oid qabul qilinayotgan qaror hamda farmonlar mamlakatda qonun ustuvorligini mustahkamlash, sud-huquq tizimini yanada rivojlantirish va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan muhim huquqiy asos hisoblanadi. Sudlar faoliyatining samaradorligi esa jamiyatda adolat, qonuniylik va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda zamin yaratadi.

Nilufar BOBOMURATOVA,
Surxondaryo viloyat ma'muriy
sudi sudyasi

Farzandini yolg'iz o'zi tarbiyalayotgan ba'zi bir onalar nikoh guvohnomasi mavjud bo'lmaganligi sababli sobiq turmush o'rtog'idan aliment undirish imkonsiz, deb o'ylashadi. Aslida ham shundaymi?

MAS'ULIYAT

QOCHIB BO'LMAYDI

Ammo O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 96-moddasida har bir ota-ona o'zining voyaga yetmagan farzandi uchun aliment to'lashi shart ekanligi belgilab qo'yilgan.

Ushbu qoidalar ko'ra, ota aliment to'lashdan bosh torta olmaydi. Agar ota o'z farzandini ochiqdan-ochiq tan olmaydigan bo'lsa, bunday hollarda qo'shimcha tekshiruvlar, ekspertiza o'tkazilishi mumkin.

Bolaning qonuniy manfaatlari uchun ota-onadan aliment undirishda ularning ish joyiga egaligi muhim ahamiyatga ega emas.

Oila kodeksining 99-moddasiga binoan, aliment to'lovi agarda ota-ona o'rtasida alohida kelishuv mavjud bo'lmasa,

sud tomonidan bolalar soniga qarab belgilanadi. Ular quyidagicha: — ota-onaning har oydagi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining: — bir bola uchun — to'rtinchi qismi; — ikki bola uchun — uchdan bir qismi; — uch va undan ortiq bola uchun — yarmisi miqdorida undiriladi.

Bunda har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 26,5 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

Aliment undirish uchun fuqarolik sudiga murojaat qilish mumkin.

Alpomish AZIMOV,
tajriba orttiruvchi notarius
yordamchisi

MULOQOT VA HAMKORLIK

Bugungi kunda kutubxonalar jamiyatning ma'naviy va intellektual taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

NURLI
MASKAN

Ilgari kutubxona asosan kitob saqlash va ularni kitobxonlarga berish vazifasini bajargan bo'lsa, hozirgi davrda u axborot markazi sifatida faoliyat yuritmoqda. Zamonaviy kutubxonalar va kitobxon o'rtasidagi munosabatlarda ham yangi bosqichga ko'tarilib, axborot texnologiyalari asosida rivojlanmoqda.

Kutubxona va kitobxon munosabatlarida muloqot va hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Kutubxonalar turli ma'rifiy tadbirlar, kitob taqdimotlari, adabiy kechalar va seminarlar orqali kitobxonlarni jalb etadi. Bu esa kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek,

kutubxonalarda foydalanuvchilarga qulay sharoit yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va elektron xizmatlarni rivojlantirish ortishiga sabab bo'lmoqda.

Axborot texnologiyalari rivojlanishi kitobxonlarga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Kelajakda kutubxonalar



faoliyatini yanada takomillashtirish, elektron resurslarni ko'paytirish va kitobxonlarga qulay xizmatlar ko'rsatish muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Gulchehra AMINOVA,
Adib Sobir Termiziy
nomidagi viloyat
Axborot-kutubxona
markazi Aboniment
sektor mudiri

SURXONDARYO VILOYATI AHOILISI VA MEHMONLARI DIQQATIGA!

VILOYAT ELEKTROMAGNIT MOSLASHUV XIZMATI OGOHLANTIRADI:

O'zbekiston Respublikasi hududiga ruxsatnomasiz va sertifikatiz olib kiritilgan hamda muvofiqlik sertifikatiz sotuvda bo'lgan

va foydalanilayotgan radioelektron vositalari (ratsiyalar, uzoq masofali radiouzaytirgichlar, portativ radiostansiyalar, sun'iy yo'ldosh qurilmalari va boshqa radio uzatgich vositalari)

o'rnatilgan tartibda musodara qilinadi va ularni noqonuniy olib kirish, sotish va foydalanishni amalga oshirgan shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralari ko'riladi.

Radioelektron vositalarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, sotish va ulardan foydalanish uchun ruxsatnoma olishni rasmiylashtirish masalalari bo'yicha viloyat Elektromagnit

moslashuv xizmatiga murojaat qilishingiz mumkin.

Bizning manzil:
Termiz shahri, At-Termiziy ko'chasi, 28-uy.

Telefon:
55-451-00-52;
55-451-00-53.

Denov tumanida faoliyat yuritayotgan YTT NORBOYEV XASAN RUSTAMOVICHga tegishli muhr va tamg'a yo'qolganligi **MA'LUM QILINADI.**

Бу воҳанинг ҳар сиқим туп-роғи тўла тарих, ҳар қадами кўҳна цивилизациялардан гувоҳлик берувчи жозибадор осори-атиқаларга бой. Энг ҳайратланарли жиҳати шундаки, миллий адабиётимизнинг асосий ўзаги бўлмиш ўзбек халқ оғзаки ижоди шу воҳада илдиз отиб, шу манзил-у маконда ривож топган. Бу воҳада яшаб ўтган оқин-у бахшиларни санаб, адоғига етиш мушкул. Бу воҳада яшаётган инсонларнинг бири бахши бўлса, бири полвон; яна бирлари юрт равнақига дахлдор илмпарвардир. Гарчи Бухоро шариф шаҳар

чолғу машини қилар, ўзини катта оқин санаб, қисқа-қисқа термалар айтишга жон-жаҳди билан киришиб кетарди. Буни кўрган ота-онаси: "Шу болада нимадир бор!" дея, унинг хатти-ҳаракати-га қанот бахш этишарди. Куннинг кўпи билан бу эътирофлар ўз исботини топиб, тахминлар ҳақиқатга айланди.

Шодмон бахши дўмбира чертиб, зўр шижоат билан дoston куйламоқда. Туннинг бағрини тилиб, сукунати парчалаб янграётган дўмбира саси ва ўзбек бахшисининг соҳир, дилтортар, жанговар овозини майин шабада шаффоф қанотларида опичлаб узоқ-узоқларга олиб кетади. Шу онда бутун олам илоҳий сукутга чўмиб, бахшининг ширали овозига маҳлиё бўлиб, жим тинглаётгандек. Юлдузлар дўмбира саси ва бахши нолағига ҳамоҳанг равишда жимирлаб, жилваланади; япроқлар билинар-билимас, мастонаҳол

ва дostonларнинг ҳар бир мисрасини қалбига жойлаб, маъносини чақишга ҳаракат қилади. Ниҳоят, шогирд пишиб етилгач, кўриқдан, имтиҳондан ўтади ва устознинг дуоси билан даврага чиқади. Шу даъфадан эътиборан, у нафақат бахши, балки халқ қалбининг моҳир таржимонига айланади".

Шодмон бахши 5-6 ёшида илк бор дўмбира чертиб, айнан қайси дoston ёки термани хиргойи қилганлигини эслай олмайди. Аслида, бу унчалик ҳам муҳим эмас. Асл моҳият шундаки, Шодмон бахши — туғма бахши, куйма бахши. Унинг туғма қобилияти ўша олис болалик чоғларидаги тинимсиз, тартибсиз машқлар, хиргойилар тобида эланиб, умид ва ҳаракатлари натижасида зуваласи пишган.

Дарҳақиқат, бахши зоти бежиз халқ қалбининг зукко таржимонига қийсланаётгани йўқ. Дунё нечоғлик тараққий этиб, янги-

Хар даврада Чамбил элин сўйлади. Бир армоним Гўрўғлида қолди деб, Келарми ё келмайми деб ўйлади. Ўн тўққизда ул санамнинг камоли, Кўёш бўлиб барқ уради жамоли. Нима бўлса сизда қолди ихтиёр, Жаннат бўлиб ҳилпирайди рўмоли.

— Қашқадарё ва Сурхондарё бахшиларининг деярли барчаси Шерна бахшининг давомчилари дейиш мумкин, — дейди Шодмон бахши. — Шерна бахши Шеробод бахшичилик мактабини яратган санъаткорлардан бири бўлади. Айтишларича, Шерна бахши 100 йил умр кўрган. Тахминан 1815-1915 йилларда яшаб ўтган. Шерна бахшини нафақат Қашқадарё ва Сурхондарё, балки кўшни Тожикистон, Туркменистон, Афғонистонда яшаган ўзбек бахшилари ҳам ўзларига устоз деб билишган. Бизгача яшаб ўтган ва ҳозирда ижод қилаётган истеъдодли бахшиларнинг барчасини устоз

рига шартлари" номли (термалар) китоблари нашрга тайёрланмоқда. Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси Шодмон бахши Хўжамбердиев 2016 йилда "Ўзбекистон халқ бахшиси" деган шарафли номга сазовор бўлган. Эришилган ютуқлар ва мамлакатимиз раҳбариятининг эътирофи Шодмон бахшига янада илҳом бағишлади. Турли тадбир ва тантаналарда кўпроқ ўзи суйган Гўрўғли туркумига кирувчи "Ота дуоси" дostonини куйлайди.

Шодмон бахши санъати орқали кўплаб танловларда иштирок этган. 1989 йилда Озарбойжон давлатида бўлиб ўтган бахшичилик фестивалида лауреат бўлган. 2025 йилда Жанубий Кореяда бўлиб ўтган фестивалда муносиб иштирок этди.

Шодмон бахши шундай дейди: "Бахшилар икки хил бўлишади. Ижрочи ва ижодкор. Ижрочи бахшилар куруқ ёдкаш бўлади. Ёдлаганларини айтиб юради. Ижодкор бахшилар эса маълум бир воқеа-ҳодисага бағишлаб, тўқиб кетаверади. Бундай бахшиларни бадихагўй дейишади. Ҳам бахши, ҳам шоир. Бундай бахшиларнинг тили ўткир, мантиғи тўқ бўлади. Ижодкорлик бахшига ҳам куч, ҳам масъулият

ОРАМИЗДАГИ ОДАМЛАР
— Ҳозирги кунда одамларнинг бахшичиликка эътибори қандай?
— Ҳозирги кунда негадир одамларнинг дoston эшитишга унчалик тоқати йўқ. Илгарилари тунларни тонгга улаб, тўй-тантаналарда дoston айтардик. Ҳеч ким ўрнидан жилмас эди. Ҳозирги давр одамларининг эса сабри йўқ.

Аслида инсон умри ҳам узун бир баётга ўхшайди. Энг қизғин, кимнингдир баёти хунук ва ўта зерикарли, кимнингдир баёти эса ширали, тинглаган сайин тинглагинг келаверади. Муҳим жиҳати шундаки, киши умри давомида заргарлик нигоҳи ва маҳорати билан бу баётни зеби зийнатлаб, жило бериб боради. Қолгани эса олий ҳакам бўлмиш вақтнинг ҳукмида. Аммо шуниси аниқки, халқнинг хотираси ва қалби доимо уйғоқдир.

Бахши "Алпомиш"ни куйлаганида, гўё Бойсун тоғларида кишнаётган отлар туёғининг дупурлари эшитилади; Гўрўғлидан парча айтганда эса, эрк ва адолат учун кураш руҳи гавдаланади. Бахшининг овози



УМР БАЁТИ

Кўҳна ва сеҳрли диёр ҳисобланмиш Сурхон воҳаси азал-азалдан дунёга долғ таратган паҳлавонлари, асл илдизи бир неча мингйилликларга бориб тақалувчи сир-синоатга бой, тилсимли тарихи-ю қадимий санъати, инсониятнинг илк манзилгоҳи бўлмиш бир неча маданиятлар ўзаро туташган макон сифатида маълум ва машҳур. Кўҳитангдан то Боботоғчага бўлган масофада ястанган манзил нафақат мўъжизакор табиати, балки истеъдодли, илм-маърифатга бой, содда, мард ва танти инсонлари билан-да оламга машҳур.

ҳисобланса-да, Сурхон воҳасининг ҳақиқий салоҳиятини Термизий алломалар томонидан яратилган асарларнинг сони ва салмоғи жиҳатидан Ўзбекистоннинг бошқа ҳудуди билан тенглаштириб бўлмайди.

Сурхон деганда, негадир, аксарият ҳамюртларимизнинг хаёлида илк бор кенг дашт ва адирлар намоён бўлади. Бу бир қарашда шундай тасаввур уйғотса-да, аслида Сурхон воҳаси ўзига хос иқлими, пурвиқор тоғлари ва гўзал табиати билан ҳар қандай инсонни ҳайратга солади. Воҳа учун ҳос бир санъат тури борки, унинг сеҳрли саси мудом қалбларни ўзига ром қилади, бахшичиликдир. Шу кунгача вилоятимиздан жуда кўплаб ширали овоз соҳиблари, таникли бахшилар етишиб чиққан. Айни кунда ўзининг ширали овози билан эл хизматида бўлган, Шеробод дostonчилик мактаби вакили Шодмон бахши Хўжамбердиевни деярли ҳамма танийди. Унинг бошқа бахшилардан фарқи — дўмбирани чап қўлда чертади. Чапақай бахши.

"Ўзбекистон халқ бахшиси" Шодмон бахши Хўжамбердиев 1967 йил 6 февраль кун Шеробод тумани, "Янги турмуш" МФЙ, Оққўприк қишлоғида таваллуд топди. Отаси Эгамберди бобо гарчи бахши бўлмаса-да, ҳар-ҳар замонда дўмбира чертиб турар, бу ўз навбатида, Шодмон бахшининг дўмбирага, халқ оғзаки ижодига меҳр қўйишига сабаб бўлди. "Кўш уясида кўрганни қилади" деганларидек, оиладаги муҳит, халқ оғзаки ижоди, бахшичиликка эътибор, Шодмон бахшининг етук санъаткор бўлиб етишишига мустаҳкам замин яратди. Онаси Рўзихол момо эса гапга чечан, ҳар гапига мақол, матал қўйиб сўзлар, фарзандларига эртак ва афсоналар билан бир қаторда, халқ дostonларидан намуналар айтиб берарди. Табиийки, халқ оғзаки ижодида нисбатан оилавий меҳр-муҳаббат Шодмон бахшининг-да юрагига кўҳна санъатга бўлган қизиқишини оширди. Ҳали мактаб ёшига етмасдан, доимо деворда осиглиқ турадиган дўмбирани олиб, бармоқларига оғрик беришига қарамасдан,

тебранди. Гўёки шаффоф ҳаво тўлқинлари билан бирга бахши ноласи уйғун ҳолда тунги тартиботни, уйғоқлик, яшовчанлик, табиат қонуниятларини бир изга солиб тургандек тасаввур пайдо қилади. Давра тўрида ўтириб сел-себор бўлиб дoston куйлаётган бахшининг эса на вақт, на макон ва на замон билан иши йўқдек. Гўёки бахшининг овози, дўмбира саси вақтни бир нуқтада (жамлағандек) тўхтатиб қўйгандек. Унинг ноласи — элнинг орзу-умидларини, куйи — ўтмиш армонларини, оташин нафаси эса халқнинг қалбини қайтадан уйғотиб юборади.

Бахши оддий ижрочи эмас. У халқ қалбининг уйғоқ бир чирогидир. Бахши-ю оқинларимиз нафақат оддий санъаткор, балки халқ оғзаки ижоди, миллий санъатимизни елкаларида мардонавор кўтариб, асрлар қаъридан эсон-омон ўтиб келаётган тирик ҳазинага қийсланади. Бахшиларнинг соф ва халқона нолаларида миллий қаҳрамонларимиз ибрати, оналар муҳаббати, ёр васлига талпинган ошиқларнинг садоқати, дард-у изтироблари яшайди. Бу нолаларга Кўҳитанг тоғлари акс-садо бериб, адирликлар, дов-дарахтлар, сайроқи қушлар жўр бўлади. Шундай бир манзара ҳосил бўладики, гўёки бутун борлик, табиат унга ҳамоҳанг куйлаётгандек.

Шодмон бахшидан сўрайман: "Бахшичилик — ўрганса бўладиган санъатми?"

Шодмон бахши айтиди: "Оға, бахшичилик илмини ўрганса бўлади, аммо инсон, аввало, бахши бўлиб туғилиши керак! Халқнинг қалби, орзу-умидлари, ўрни келса, армонлари шунчаки тилда ифода этилмайди, балки дил-дилдан ҳис қилинади. Бунинг учун инсон улкан қалб соҳиби бўлиши керак. Бахшида Худо томонидан берилган туғма истеъдод бўлмаса, бари бефойда. Бахшичилик аслида қисмат. Бу санъатни китобдан ўқиб-ўрганиб бўлмайди; у тилдан тилга, дилдан дилга кўчиб юрадиган халқимизнинг буюк ҳазинаси, миллий анъанасидир. Ёш шогирдлар устозларининг ёнида неча йиллаб дўмбира чертишининг турли хил усулларини, сир-асрорларини ўрганади, куйланаётган терма

дан янги санъат турлари пайдо бўлмасин, халқ оғзаки ижоди, фольклор санъатига нисбатан қизиқиш йўқолмайди. Хусусан, Қашқадарё ва Сурхон воҳасида бахшиларни "юзбоши" ёки "жузбоши" деб аташ анъанаси ҳам бор. Бахши ўз санъати ва ижоди билан юзларни, мингларни ортитдан эргаштира олади. Бахши санъати ва маҳоратининг сеҳр-у жозибаси ҳам эҳтимол шундан.

Даврада дўмбирасини сайра-тиб, терма ва дostonларини куйлаётган бахшиларнинг ижроси томошабинларни чуқур ўйга толдиради. Кимдир қайдадир бирорларга нисбатан қилган адолатсизлигидан хомуза тортса, яна кимдир ҳаёт мураккабликлари ҳақида ўй сурлади. Ушаламаган орзулар, эски хотиралар киши хаёлини узоқ-узоқларга олиб кетади. Шодмон бахши эса дўмбира сози ва ширали овози билан халқ қалбининг қат-қатига кириб боради.

Шодмон бахши "Хондалли" дostonидан куйлайди:
*Хон Гўрўғли тингланг менинг сўзимди,
Ажирумдан Аллоёр дер ўзимди.
Элатимдан баён айлай султоним,
Сўрадингиз, жавоб бермоқ лозимди.*

*Бир санам бор, гўзалликда ягона,
Кўрган одам ақл-у ҳушдан бегона.
Саҳар-саҳар боғда хиром айлайди,
Жонбошида етмиш икки дугона.
Жамолига одам қараб туrolмас,
Гуноҳкорлар таърифини беролмас.*

*Бол томади ҳар бир айтган сўзидан,
Ҳеч бир султон қабатига боролмас.
Фариштаннинг жамоли бор юзида,
Саккиз жаннат кўринади кўзида.
Таърифини айтар бўлсам султоним,
Қанча беклар хор бўп ётар изида.
Саҳар туриб сочин ёяр айвонга,
Бир қимтинса, азоб берар хайвонга.*

*Шу дамгача ўз тенгини топган йўқ,
Бир шарти бор, кураш тушар майдонда.
Ушлаганни сермаб отар осмонга,
Полвон қиз деб номи кетган жаҳонга.
Ким йиқитса бағишлайди танини,
Хали ҳеч ким тенг бўлмаган полвонга.
"Ким қолди" деб яна талаб айлади,*

деб биламан. Уларнинг ҳар бирдан ниманидир ўрганиш мумкин.

Қишлоғимиздаги 53-мактабда таълим олганман. Биринчи устозим она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси Омон Шотўраев бўлади. Омон домла дарсга қизиқтириш мақсадида бизга халқ дostonларидан ўқиб берарди. Ўша даврларни эсласам, қалбим алланечук орзиқиб кетади.

Муборак ҳадиси шарифда: "Бешиқдан қабргача илм изла" деб бежиз айтилмаган экан. Қодир бахшининг ўғли Абдимурод Раҳимовдан ҳалигача айрим нағмаларни ўрганаман. Санъат шундай нарсаси, доим янгиликка, янгиликка мойил бўлади. Ўз устида ишламаган ҳар қандай санъаткор таназзулга маҳкумдир. Санъати қадрейланилади, ўзи эса халқ назаридан қолади. Санъаткор халқи учун бундан ортиқ фожиа бўлмайди.

Қашқадарёлик Қодир бахши Раҳимов, воҳадошларимиз: Хўшбўқ Мардонақулов, Чори Умиров, Қора Умиров, Чорша Раҳматуллаевларни устоз деб биламан. Бахшичилик иқтидори менга тоғам Шотўра ўғли Бойқул бахшидан ўтган бўлса керак. Ёшлигимдан ўзим ҳавас қилган Қодир бахши, Хўшбўқ бахши, Қора бахши, Чорша бахшиларга ўхшашни истаганман. Шогирдларим масаласига келсак, шерободлик Майсара бахши ҳамда ўғлим Шерали бахшилар издошларимдир. Ўғлим айни пайтда издошим сифатида мен билан бирга Термиз шаҳридаги Республика Бахшичиликка ихтисослашган мактаб-интернатда бахшичилик йўналиши бўйича ўқувчиларга таълим бермоқда. Бир ўғил, 3 нафар қизим бор.

Шу пайтгача Шодмон бахшининг "Шерободлик Шодмон бахшининг маҳорати" (илмий), "Хондалли", "Хурдона" (дoston), "Сурхонданман, Сурхондан" ҳамда "Куйла Сурхон дўмбираси" (термалар) каби китоблари нашрдан чиққан. Шунингдек, "Авазхоннинг банди бўлиши", "Авазхоннинг жузумкўзни олиб келиши", "Лолатош", "Ҳасан қулбарнинг уйланиши" каби дoston ва "Қодир бахшининг шогирдла-

юклайди. Куйлаётган дoston ва термаларнинг юқини теран ҳис қилади. Халқимиз сохтакорликни ёмон кўради. Ахир, қалбдан чиққан нолагина, қалбга ётиб боради. Акс ҳолда, куруқ томоқ йиртгандан наф йўқ. Қисқаси, бу санъат йўлига кирган ҳар қандай бахши ўз касбини бизнесга айлантириб олмаслиги лозим. Мақсад фақат тўйдан тўёна ундириш бўлиб қолмаслиги керак-да. Ахир, санъатга чанқоқ халқимизнинг ҳақиқий эпосларни мириқиб тинглашга ҳаққи бор деб ўйлайман".

— Миллий санъатимизнинг бугунги аҳволи ҳақида фикирингиз қандай?

— Бугунги кунда "айрим" санъаткорларнинг бачкана қилиқ ва ижро усулини кўриб, санъатдан ҳам, санъаткорлардан ҳам, шунга йўл очиб бераётган "ҳомий"лардан ҳам ҳафсаланг пир бўлади. Миллийлигимиз, урф-одатларимиз, шарқона қарашларимизга пугур етаётгани билан гўёки ҳеч кимнинг иши йўқдек, бу каби бачканаликлар кун сайин барқ уриб, палак ёзиб, ўзининг "тогли" меваларини бера бошлади. Тутуриқсиз, бир-бирига мутлақо қовушмаган алмоий-алжойи, алаҳсирашга ўхшаган сийқа хиргойилар деярли ёшларнинг онгига ўтириб, санъат ўлароқ қабул қилинаётганлиги фожиа.

— Ҳозирги кунда ижод қилаётган қайси бахшиларни эътироф этган бўлардингиз?

— Деҳқонободлик Баҳром Раҳимов, шерободлик Панжи бахши, қумқўрғонлик Исмоил бахши Анваров, Омон Шерназаров, қизирқлик Гулбой бахши, Муҳаммад Эшбоев, бандихонлик Сафар Шайдилов каби бахшиларнинг куйлаш услуби менга манзур келади. Уларнинг ҳар бирининг ўзига хос овози, услуби бор.

баъзан момақалдиқдек гулдирайди, баъзан булоқ сувидек шивирлайди.

Даврлар ўзгаради, инсонлар ўзгаради, аммо асло бахшининг жамиятда тутган ўрни ўзгармайди. Инчунин, халқ бор экан, унинг тарихи ва хотираси ҳам мангу яшайверади. Бахшилар эса ана шу хотиранинг посбони, сўз ва куй сеҳргари бўлиб қолаверади.

Хулоса ўрнида: халқимизда: "Бахшили эл — ботир эл", деган мақол бор. Бу бежиз айтилмаган. Бахшиларнинг бўғиздан наъра тортиб айтадиган баётлари овозининг йўғонлиги ва жанговарлиги билан қайсидир маънода тингловчида жўмардлик, самимият, меҳр-муҳаббат, вафо ва садоқат каби соф инсоний туйғуларни жунбушга келтиради. Яъни бахши бу нолалар билан тингловчиларнинг мудраб қолган қалбларини уйғотаётгандек, халқни қаҳрамонлик, жасорат, вафо ва садоқат сари етаклаётгандек.

Берилиб дoston айтаётган бахшининг бўғиздан ички босим билан отилиб чиқаётган нолалари юзига қизиллик беради, пешоналаридан реза-реза тер оқади, бўйин томирлари гўёки ингичкароқ ўқловдек бўртади; қисилган кўзлари билан гоҳ-гоҳида даврага назар ташлайди. Шу даъфада Шодмон бахши халқнинг кўзи ўнгиде истеъдодини қуриқдан ўтказаятган, имтиҳон топшираётган бўлади. Мантиқан олиб қарайдиган бўлсак, бу нафақат Шодмон бахшининг, балки ўзбек бахшичилигининг, фольклор санъатининг имтиҳонидир... Зеро, бу майдонда кучсизларга ўрин йўқ.

Холмуҳаммад ТОҒАЙМУРОД, Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси

<p>SURXON TONGI</p> <p>va</p> <p>ЗАРЯ СУРХАНА</p> <p>gazetalari tahririyati</p>	<p>MUASSISLAR:</p> <p>Xalq deputatleri Surxondaryo viloyati Kengashi va viloyat hokimligi</p>	<p>TAHIRIYATI</p> <p>Abduraim CHORIYEV (hay'at raisi)</p> <p>Ilhom SAPAROV, Ibrohim YQUBOV, Murodбек DAVLATOV, Iqroriddin AYNIDDINOV, Dinara EGAMBERDIYEVA, Xurshid KARSHIYEV</p>	<p>Gazeta</p> <p>2017-yil 3-fevralda viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida 11-001-raqam bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.</p>	<p>BOSH MUHARRIR</p> <p>Norohiddin SALOQIBOYEV</p> <p>MAS'UL MUHARRIR Sayyora ALLAYEVA</p> <p>NAVBATCHI MUHARRIR Xurshid KARSHIYEV</p> <p>SAHIFALOVCHI DIZAYNER Dildora VOHIDOVA</p>	<p><i>Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrid qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.</i></p> <p><i>Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.</i></p>	<p>Gazeta</p> <p>"Surxon tongi" va "Zarya Suxhana" gazetalari tahririyati bosmaxonasida chop etildi.</p>
	<p>TELEFONLAR:</p> <p>76 224-23-85,</p> <p>76 224-23-80,</p> <p>76 224-23-87</p>	<p>Qog'oz bichimi A-2, 2 bosma taboq</p> <p>Nashr indeksi: 6500</p> <p>Bosishga topshirildi — 09:00</p> <p>Bosildi — 11:00</p> <p>Adadi 6859 nusxa.</p> <p>Buyurtma G-</p>	<p>MANZILIMIZ:</p> <p>Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy</p> <p>BOSMAXONA MANZILI:</p> <p>Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy</p>			